

GLOBALLASHUV - OBYEKTIV JARAYON SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20791510>

Allayarova Marhabo Mavlonovna

Xamroyeva Muslima Odilovna

Samarqand Davlat pedagogika instituti o'qituvchilari

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuvning ilmiy termin sifatida vujudga kelishi, tub ildizi, shakllanishi tahlil etilgan. Xususan, globallashuvning milliy va xalqaro madaniyat va qadriyatlar tizimidagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

global, milliy, qadriyat, madaniyat, ijobiy va salbiy, obyektiv zarurat.

Abstract

This article analyzes the emergence, roots, and formation of globalization as a scientific term. In particular, it highlights the role of globalization in the system of national and international culture and values.

Keywords

global, national, value, culture, positive and negative, objective necessity.

Bugun globallashuv o'z ta'sirini o'tkazmagan bironta soha qolmadi deb aytish mumkin. Dastlab u mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida aks etgan bo'lsa, hozirga kelib siyosat, axloq, milliy-ma'naviy hayot, mafkura, insonlarning kundalik turmush kechirishigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'ziga qamrab olmoqda.

Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli daraja va ko'rinishlarda mavjud bo'lgan. Dastlab u stixiyali ravishda kechgan bo'lsa, ma'lum vaqtdan keyin iqtisodiyotni taraqqiy ettiruvchi omilga aylangan. Uning bu imkoniyatidan hayotga manfaatdor bo'lgan va bu jarayonning avj olishi XXI asr boshlariga to'g'ri kelmoqda.

Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. Aksariyat ko'pchilik ilmiy tadqiqotlarda globallashuvni lotin tilidagi "globus - shar", fransuz tilidagi "global - umumbashariy" so'zlari bilan ta'riflaydilar.

Respublikamiz olimlari hamkorligida nashr etilgan "Falsafa - qomusiy lug'ati"da "Global (umumbashariy) muammolar" tushunchasi sifatida berilgan. Unda bu tushuncha (fransuzcha global - eng umumiy) o'z ko'lami, qamrovi

jihatidan xilma-xil va butun yer shariga, insoniyatga daxldor bo'lgan muammo ekanligi ta'kidlanadi¹.

Yana, "Akademiya" nashriyoti tomonidan 2005-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun nashr qilingan "Milliy istiqlol g'oyasi" darsligida globallashtirish atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Globallashtirish – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir".

Albatta, qit'alarining, mintaqalarning, davlatlarning, xalqlar va millatlarning o'zaro yaqinlashganini tarixning har bir davrida ko'rish mumkin. Buning sababi, bir tomondan, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalarining takomillashishi, shu jumladan transport imkoniyatlarining o'sishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqlarning o'zaro yaqinlashuviga intilishi edi.

Chunki yaqinlashuv hamda o'zaro muloqot va munosabat tajriba almashish, bir-birini boyitishga yo'l ochadi, taraqqiyotni tezlashtiradi. Uchinchidan, o'zaro yaqinlashuv va munosabatlar inson ongini boyitadi, olam to'g'risidagi ilmlar doirasini kengaytiradi, bu esa insonni borliqqa nisbatan iste'molchilik bilan cheklanmay, uning yaratuvchi, o'zgartiruvchi, takomillashtiruvchi, bunyodkor ekanligiga ishonchini mustahkamlaydi.

Ishlab chiqarish qurollari asrlardan asrlarga takomillashib borgan. Insoniyatning keyingi yigirma-yigirma besh asr davomidagi tarixi bu fikrni tasdiqlaydi. Tarix taraqqiyoti asosida qilingan bu xulosalarga suyanib aytish mumkinki, ishlab chiqarish kuchlarining tinimsiz takomillashuvi va bu takomillashuv jarayonining tezlashuvi oqibatda globallashtirishga olib keldi.

Hozirgi zamon globallashtirishning bundan ilgarigi rivojlanish jarayonlaridan farqi shundaki:

Birinchidan, uning miqyoslari va sur'atlari tarixdagi miqyos va sur'atlardan tubdan farq qiladi; Ikkinchidan esa, globallashtirish har bir insonga va umuman butun insoniyatga birlik, umumiylik hissini tug'diradi. Kishilar millati, irqi, tili, dini va boshqa alomatlar hamda rivojlanganlik darajasidan qat'i nazar, insoniyatning tarkibiy, uzviy qismi ekanligini kundalik hayotda ko'rmoqdalar, sezmoqdalar asosida ishonch hosil qilmoqdalar.

Ana shunday globallashtirish fenomeni haqida gap ketganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Globallashtirish jarayoni hayotimizda tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerakki,

bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaq va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib bormoqdaki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Globallashuv – obyektiv jarayon, chunki uni sekinlashtirish mumkin, lekin uni to'xtatib bo'lmaydi. Globallashuvni to'xtatishga urinish taraqqiyotni, jamiyat rivojlanishini to'xtatmoq demakdir. Bunday harakat, maqsad, niyat, muddao faqat vaqtinchalik va Yer kurrasining ma'lum bir qismidagina amalga oshirilishi mumkin, lekin taraqqiyot muddati bunday aralashuvlarni yuvib, tekislab ketadi. Umuman olganda globallashuv shubhasiz ijobiy voqea, insoniyat tarixida, taraqqiyotida yangi sahifa deb aytish mumkin.

Ma'lumki, tarixiy taraqqiyot jarayoni eskilikning o'rniga yangilik kelishi orqali amalga oshadi.

Ma'lumki, tarixiy taraqqiyot jarayoni eskilikning o'rniga yangilik kelishi orqali amalga oshadi. Eskilik biz bilgan, biz o'rgangan, biz tabiiy ravishda qabul qilgan dunyo, milliy hayot tarzi, milliy til, milliy musiqa, milliy urf-odatlar va hokazo. Yangilik esa hozirgi zamon texnikasi va texnologiyalari asosida hayotimizga kirib kelayotgan katta, yirik rivojlangan davlatlarning, millatlarning madaniyati, san'ati, texnikaviy, texnologik yangiliklari va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv natijasida butun dunyo bir butun xo'jalikka aylanmoqda. Hozirgi zamon insoniyat hayoti ochiq va erkin bozor munosabatlariga suyanadi. Bunday sharoitda milliy iqtisodlardan iborat jahon iqtisodi shakllanmoqda, milliy madaniyatlardan iborat jahon madaniyati tashkil topmoqda. Bu jarayonlar milliy iqtisod va milliy madaniyatlar hayotida muhim ijobiy rol o'ynamoqda, chunki globallashuv tufayli milliy iqtisod va milliy madaniyatlarning yaqinlashuvi tezlashadi, ular bir-birlarining yutuqlaridan foydalanishi benihoya jadallashadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Falsafa qomusiy lug'at. –T.: Ўзбекистон faylasuflari milliy jamiyati, Sharq nashriyoti. 2004-yil. -B. 92.
2. Milliy istiqlol g'oyasi. Darslik. T., "Akademiya", 2005. 82-b.
3. Yaxshilikov J.Ya. Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya va mafkura. –T.: Fan nashriyoti. 2015-yil. -B. 198.
4. SODIKI, NN, et al. "SOME ASPECTS OF THE ANTHROPOLOGICAL TEACHING OF MIRZA ABDULKODIR BEDIL." Scientific publishing house Infinity, Moscow КОИФЕРЕИЦИЯ: GLOBAL PERSPECTIVES IN SCIENCE,

EDUCATION AND APPLIED RESEARCH Delhi, India, 21 мая 2025 года
Организаторы: Scientific publishing house Infinity, Moscow.

5. Yaxshilikov, J., and N. Muhammadiev. "National idea-development strategy." *T., Fan nashriyoti* 158 (2017).

6. Yaxshilikov, J. J. "Muhammadiev N. Muhammadiev NE Philosophy. Textbook (for all bakalavr directions)." *Samarkand: SamSU* (2021): 150.

7. Yaxshilikov, J. "Ya. Muhammadiyev NE Milliy g 'oya: O 'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik." *T.: Cho 'lpon nomidagi nashriyot* (2018): 516-517.

8. Xoliqulov, Muhammad Qaxor O'G'Li. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.26 (2024): 384-388.

9. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 4 (2024): 22-27.

10. Kholikulov, Mukhammad. "Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism." (2023).

11. Muhammad, Xoliqulov. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUZ BERAYOTGAN GEOMAFKURAVIY JARAYONLAR TADQIQINING FALSAFIY-METADOLOGIK ASOSLARI." *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar* 1.3 (2025): 105-109.

12. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO